

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI

Nosirova Dilnoza Toir qizi

JDPI o'qituvchisi (dilnoza_n92@gmail.com)

Jalilov Shavkat Toir o'g'li

O'ZMU Jizzax filiali talabasi(shavkatjalilov17@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit-modul tizimi, uning ahamiyati, talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etishning asosiy shakllari, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarining turlari, talabalar auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarining mazmuni ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, mustaqil ishning shakllari, auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari mazmuni.

Annotation: This article provides a scientific and methodological basis for the credit-module system, its importance, the main forms of organization of independent study of students, types of independent work of students in the credit-module system, the content of independent work of students in the classroom and outside the classroom.

Keywords: Credit-module system, independent study, forms of independent work, the content of independent work in the classroom and outside the classroom.

Ta'lim tizimini samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limga shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. demak ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni etishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabridagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sون Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "...oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" masalalari vazifa qilib qo'yildi.

Kredit-modul tizimi zamонави та'limning eng takomillashgan shakli sanaladi.

Kredit-modul tizimiga ko‘ra o‘quv mashg‘ulotlari shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari va talabaning mustaqil o‘qib o‘rganishiga asoslanadi.

Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishining ikki turi ajratiladi:

- auditoriyada – bu bevosita o‘qituvchi rahbarligida bajariladigan mustaqil ishlar;

- auditoriyadan tashqari – o‘qituvchi tomonidan berilgan, lekin uni ishtirokisiz talaba tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar.

Talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari mazmuni o‘quv fani ishchi dasturida ko‘rsatilgan, tavsiya etilayotgan o‘quv topshiriqlari asosida belgilanadi.

Talaba va o‘qituvchilarda ushbu umumiylar o‘qish yuklamasining aynan qancha qismi dars, auditoriya soatlariga to‘g‘ri keladi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Kredit-modul qoidalari bu masala bo‘yicha aniq talab yoki chegara belgilamagan.

Bunga ko‘p sabablarni keltirish mumkin. Masalan, ta’lim jarayonlari yoki modul har doim ham o‘z tarkibiga auditoriya soatlarini qamrab olavermaydi. Bunga misol qilib o‘quv dasturidagi bitiruv amaliyoti, diplom ishi va shu kabi o‘qish elementlari va modullarni keltirishimiz mumkin. Ko‘rib turganingizdek, bunday o‘qish elementlarida auditoriya soatlari bo‘lmaydi. Lekin kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan universitetlar amaliyotini tahlil qilganimizda, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo‘lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil o‘qish soatlari nisbati o‘rtacha 40 foizga 60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu nisbat boshqacha qilib aytganda 1 : 1.5 to‘g‘ri keladi. YA’ni, talaba muayyan fan bo‘yicha belgilangan har 1soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir yarim soat mustaqil o‘qishi, tayyorlanishi kerak bo‘ladi.

Matematika va informatika yo‘nalishida mustaqil ta’lim olishning eng maqbul shakllarini tanlash, ulardan foydalanishning adekvat usullarini qo‘llash talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, ularning amaliy faoliyat jarayonida mustaqil, ijodiy topshiriqlarni samarali bajarishlariga olib keladi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish shakllari ta’lim jarayonining har bir bosqichida namoyon bo‘lsa-da, biz asosan matematika va informatika yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’lim olish shakllarini ilmiy asoslashga harakat qildik.

a) auditoriyada tashkil etiladigan mustaqil ta’lim shakllari:

1a-shakl - ma`ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish;

2a-shakl - amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish;

3a-shakl - pedagogik va axborot texnologiyalar asosida talim jarayonini loyixalashtirish va uni amalga oshirishni o‘rganish.

b) auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta’lim shakllari:

1b-shakl - o‘quv adabiyotlari bilan ishlash;

2b-shakl - nazorat ishlariga tayyorlanish;

3b-shakl - ma`ruza tayyorlash;

4b-shakl - masofaviy ta’lim texnologiyasi.

Quyida auditoriyada tashkil etiladigan mustaqil ta’lim shakllarining mazmuni haqida qisqacha to’htalib o‘tiladi.

1a-shakl. Ma`ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish. Matematika va informatika yo‘nalishi fanlaridan ma`ruzani tinglash, uni daftarda qayd etish jarayonida ma`ruza manbalari varaqning bir tarafiga, ikkinchi tarafiga joy qoldirilgan holda yoziladi.

Ikkinchi tarafiga esa talaba tomonidan chiqarilgan xulosalar, texnik echimlar, mulohazalar, ularda paydo bo‘lgan savollar, savollarga javob variantlari, faktlarni yozish va xar xil belgilarni qo‘yish tavsiya etiladi. SHuning uchun ba`zan keng hoshiyalar qoldiriladi.

2a – shakl. Amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish. Amaliy mashg‘ulotlar talabada metodik bilimni mustahkamlashga, ularni yangi vaziyatga ko‘chirib, amaliy masala hamda vaziyatlarni hal qilish uchun umum-pedagogik tushunchalar va asosiy pedagogik malakalarni rivojlantirishga qaratiladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining asosiy mohiyati shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda mavzuga oid turli topshiriqlarni bajaradilar yoki tajriba o‘tkazadilar.

Amaliy mashg‘ulot o‘tkazish shakllari: turli xil pedagogik-texnologik vaziyatlarni loyihalash, metodik masalalarni hal etish, topshiriqlar bajarish, o‘qituvchilar bilan bahs-munozaralarda ishtirok etish.

Amaliy va laboratoriya ishlarida talabalarning asosiy ish faoliyati texnologik mashqlar hisoblanadi.

3a – shakl. pedagogik va axborot texnologiyalar asosida talim jarayonini loyixalashtirish va uni amalga oshirishni o‘rganish.

Matematika va informatika yo‘nalishi talabalari ma`ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘rganilgan pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta’lim jarayonini loyihalashtirishni asosan pedagogik amaliyat jarayonida amalga oshirishni o‘rganishadi. Bunda talabalar ma’lum sharoitlarda egallagan bilimlarni ijodiy qo‘llash va ta’limning optimal variantlarini tanlay olish;

o‘quvchilarda o‘rganishi lozim bo‘lgan materialni metodik jihatdan qayta ishslash; ilmiy-metodik izlanishlar olib borish; o‘quvchilarda matematikaga qiziqish uyg‘otish va qiziqishlarni rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishilari lozim.

Auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta’lim shakllari mazmuni.

1b – shakl. O‘quv adabiyotlari bilan ishslash. Auditoriyadan tashqarida o‘quv adabiyoti bilan ishslash mustaqil ta’lim olishning eng asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. O‘quv adabiyoti bilan ishslash juda oson va qulay usul hisoblanadi. O‘quv adabiyotlari bilan ishslashni barcha ta’lim oluvchilar yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari lozim. O‘quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik adabiyotlar, ma`lumotlar, yo‘riqnomalar va hokazolarni tushunish mumkin.

2b – shakl. Nazorat ishlariga tayyorlanish. Imtihonlarga va nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham mustaqil ta’limning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida imtihonlar va nazorat ishlari topshirishda talabalardan katta ma`suliyat talab etiladi. Imtihonlarda va nazorat ishlarida talabalar o‘quv rejasini qanday darajada o‘zlashtirganliklari haqida hisobot beradilar. Talabalar ijobjiy baholanishlari uchun nazorat ishlariga o‘z xohishlari asosida mukammal tayyorlanishlari shart. Talaba har bir darsga o‘z vaqtida puxta tayyorlansa ham nazorat ishlaridan oldin, baribir, qayta o‘qishi, o‘qiganlarini umumlashtirishi va tizimlashtirishi lozim.

3b – shakl. Ma`ruza tayyorlash. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida ta’lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalanilmoxda. Ta’limning asosiy shakli esa ma`ruza hisoblanadi. Ma`ruza tayyorlash ancha murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan ishdir. Bo‘lajak matematika va informatika yo‘nalishi bakalavr-o‘qituvchilari geometriya fanida, pedagogik amaliyot jarayonida ma`ruza tayyorlashlariga to‘g‘ri keladi.

Ma`ruza vaqtida ham, har turli amaliy mashg‘ulotlarda ham, asosiy e`tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishlarini rivojlantirish, bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

4b – shakl. Masofaviy ta’lim texnologiyasi. Masofaviy ta’lim texnologiyasi an`anaviy ta’lim tizimini amalga oshirishda duch kelingan muammolarni hal etish yoki shart-sharoit uni taqozo qilgan holda qo‘llaniladi. U ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Masofaviy ta’lim jarayonining asosini mustaqil ta’lim tashkil qilganligi uchun ham talabalarda ijodiy tafakkur rivojlanib boradi. Masofaviy ta’limda o‘quv jarayonining muddati qat`iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob

yo'llashni talaba mustaqil, o'ziga qulay vaqtida bajaradi. Ushbu holat masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning kredit-modul tizimi barcha ta'lim shakllari nazoratini (auditoriya va auditoriyadan tashqari) o'z ichiga olganligi, ta'lim jarayonida o'qilgan soatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko'rsatib beruvchi o'lchov birligi hisoblanishi sababli ham ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga molikdir.

Kredit-modul tizimini joriy qilinishini o'rghanish, tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning turli dunyo mamlakatlarida o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari mavjud. Kredit-modul tizimining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi ko'pgina dunyo mamlakatlarining ta'lim sistemasida keng tarqalganligida ko'rmoqda, chunki, ta'lim dasturlari yo'naliшhlarining taraqqiy etishi talabalarni bilimni mustaqil o'zlashtirish va mustaqil ishi ijodiy faoliyat darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi, demak, ta'lim sifati to'liq oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sون Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.2-bet.
2. Nosirova M., Xummamatova K., Nosirova D. Kredit-modul tizimining moxiyati va axamiyati. Differensial tenglamalar va matematikaning turdosh bo'limlari zamonaviy muammolari. Xalqaro ilmiy konferensiya.II. Farg'ona-2020.
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. «Kasb ta'limi yo'naliшh o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish» – TDPU, Toshkent 2006
4. O'rinnov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushuncha va qoidalar. 10.08.2020
5. European Commission ECTS Guide of 2015. Available at
https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/ects-users-guide_en.pdf